

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO’QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Qo’qon davlat universiteti

Rektir D.Sh.Xodjayeva

29-avgust 2025-yil

YAQQOL TASVIRLAR NAZARIYASI
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta’lim

Ta’lim sohasi: 110000 – Ta’lim

**Magistratura
mutaxassisligi:** 70111202 – Muhandislik grafikasi va
dizayn nazariyasi

Qo’qon- 2025

Fan/modul kodi		O‘quv yili	Semestr	Kreditlar	
YTNT105		2025-2026	4	5	
Fan/modul turi		Ta’lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Tanlov		O‘zbek, rus		4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	YAqqol tasvirlar nazariyasi		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad – magistrlarda fazoda joylashgan buyumning tekislikdagi yaqqol tasvirini qurish usullarining ilmiy asoslarini, geometrik shakl va obyektlarning aksonometrik proyeksiyasini, texnikaviy rasmini va perspektiv tasvirini qurish usullarining nazariy asoslarini, buyum va obyektlarning ortogonal proyeksiyalari asosida ularning yaqqol tasvirlarini qurishni eng optimal usullarini tanlay olish va uni amalda bajarishni shakllantirish ko‘-nik-malarini hosil qilishdan iborat. YAqqol tasvirlar nazariyasida fazodan tekis chizmaga yoki aksincha, tekis chizmadan fazoga tez “ko‘cha” olishni, avvaldan berilgan parametrlari asosida buyum va obyektlarning aksonometrik proyeksiyasi, texnkaviy rasmi va perspektiv tasvirini qurishni, fazoviy tasav-vur va tafakkur-ni rivojlantiruvchi loyihalash, rekonstruksiya va perspektiv tahlil qilishga oid masalalarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish hamda amaliyotda tatbiq tushuntiriladi. Fanning vazifasi–magistrlarga aksonometriyaning asosiy teoremasi, o‘zgarish koeffitsientlari va ya turlari va amaliyotda foydalanish, texnikaviy rasmni amalda qo‘llay olish, aksonometriya va markaziy proyeksiyalashda pozitsion va metrik masalalar yechish, masalalarni boshqa proyeksiyalash usullari bilan qiyosiy tahlilini o‘tkazish, geometrik sirt va obyektlarning perspektiv tasvirini loyihalay olish, ekstrer, interyerlar perspektivasini qurish, aksonometrik va perspektiv tasvirlarda yorug‘-soylar, aks tasvirlar bajarish, yaqqol tasvir qurish-ning eng qulay usullaridan grafika olamida va ishlab chiqarishdagi va amaliy ahamiyatini ochib berishdan iborat.				

II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I - MODUL. AKSONOMETRIK PROEKSIYALAR.

1-mavzu. Fanning predmeti va o'rganish usullari. Aksonometrik va perspektiv tasvirlar o'rtasidagi yutuq va kamchiliklarning qiyosiy tahlili.

Fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va o'rganish usullari. Aksonometrik proyeksiyalarning umumiy mazmuni. Perspektiv tasvir qurish va uning hosil bo'lish asoslari. Aksonometriya va perspektivaning qiyosiy tahlili.

2-mavzu. Aksonometrik o'qlar va ular bo'yicha o'zgarish koeffitsientlari. Aksonometrik masshtablar va izlar uchburchagi.

Dekart koordinalar sistemasi, koordinata o'qlari, aksonometriya tekisligi, proyeksiyalash yo'nalishi, aksonometrik proyeksiya. Aksonometrik o'qlar, o'qlarning qisqarishi, qisqarish koeffitsientlari. Aksonometrik masshtablar va izlar uchburchagi.

3-mavzu. Haqiqiy aksonometriyaning keltirilgan aksonometriya bilan qiyosiy tahlili. Aksonometriyaning asosiy teoremasi. O'zgarish koeffitsientlari va protsiyalash burchagi orasidagi bog'lanish. Keltirilgan o'zgarish koeffitsientlari.

To'g'ri burchakli aksonometriya. Qiyshiq burchakli aksonometriya. Haqiqiy aksonometriya. Keltirilgan aksonometriya. Aksonometriyaning asosiy teoremasi. Karl Polke teoremasi. G.A.SHvars teoremasi.

4-mavzu. To'g'ri burchakli aksonometriyada izlar uchburchagi va aksonometrik o'qlar. To'g'ri va qiyshiq burchakli standart aksonometriyalar. To'g'ri burchakli aksonometriyada izlar uchburchagining hosil bo'lishi. Izlar uchburchagiga oid 3 ta teorema. To'g'ri burchakli aksonometriya. Qiyshiq burchakli aksonometriya.

5-mavzu. YOrdamchi proyeksiyalash usuli bilan aksonometriya

yasash. YOrdamchi proyeksiyalash usulining mohiyati va mazmuni. YOrdamchi proyeksiyalash usulida aksonometriya qurish yo'llari.

6-mavzu. Aksonometriyada soyalar yasash nazariyasi. YOrug'-soyaning fizik xususiyatlari. YOrug'lik yo'nalishi. Kub diagonal. Geometrik shakl va sirtlarning aksonometriyasida shaxsiy va tushuvchi soyalarni qurish.

II - MODUL. TEXNIK RASM.

7-mavzu. Texnikaviy rasm bajarish. Texnik rasm bajarishda koordinata o'qlarini tanlash. O'naqay va chapaqay sistemalar. Tekis shakl va geometrik jismlarning texnik rasmi. Buyumlarning texnik rasmini pardoqlash usullari.

III - MODUL. PERSPEKTIV TASVIRLAR YASASH.

8-mavzu. Perspektiva turlari va ularning tasviriy san'at, arxitektura hamda boshqa sohalardagi roli. Perspektivaga qo'yiladigan hozirgi zamon talablari. Kuzatish perspektiva, analitik perspektiva, havoii perspektiva, geometrik perspektiva, kinoperspektiva, aeroperspektiva. Perspektivaning tasviriy san'at, arxitektura, qurilish, dizayn bilan integratsiyasi. Perspektivaga qo'yiladigan hozirgi zamon talablari.

9-mavzu. Geometrik shakllar orasidagi pozitsion va metrik munosabatlarni ularning ortogonal, markaziy va aksonometrik proeksiyalaidagi echimlarining qiyosiy tahlili. Pozitsion masalalar, metrik masalalar. Ortogonal va markaziy proyeksiyalash usullarida pozitsion va metrik masalalar echish hamda ularning qiyosiy tahlilini o'tkazish.

10-mavzu. Og'ma tekislikda perspektiv tasvir qurish usullari. Og'ma tekislikda perspektiv tasvir qurishning umumiy nazariyasi. Og'ma tekislikda geometrik sirtlarning perspektivasi. Og'ma tekislikda obyekt perspektivasi.

11-mavzu. Perspektivada soyalar yasashning ilmiy asoslari. Soyalarning tasviriy san'at va arxitekturadagi ahamiyati.

YOritish manbalari. Sun'iy va tabiiy yoritish manbalari. Quyoshning asosiy vaziyatlari. Geometrik shakl va sirtlarning shaxsiy va tushuvchi soyalarini aniqlash. Obyekt perspektivasida uning shaxsiy va tushuvchi soyalarini

aniqlash.

12-mavzu. Suv havzalari bo'yidagi obektlarning perspektivasini soyalari va aks tasvirlari bilan qurish. Aks tasvirlar qurishda metrik masalalarning roli. Aks tasvir mazmuni va uning amaliy ahamiyati. Ko'zgu va suv sathida aks tasvir perspektivasini qurishning nazariy asoslari. Eksterer va interyerda aks tasvir perspektivalarini bajarish.

13-mavzu. Perspektivasi berilgan intererning planini tiklash. Kichik kartina usuli va kartinalarni kattalashtirish. Tekis shakllarni perspektivasi asosida uning planini tiklash. Geometrik shakllarni perspektivasi asosida uning plani va fasadini tiklash. Interyer perspektivasi asosida uning planini tiklash.

14-mavzu. Perspektiv tahlil va rekonstruksiya. Tasviriy san'at asarlarini perspektiv tahlil qilishda perspektiva qoidalaridan foydalanish. Perspektivada rekonstruksiya ishlari. Rassom asarini perspektiva qoidalari asosida tahlil qilish. Noto'g'ri chizilgan rasmlarni to'g'rilash usullari.

15-mavzu. Kuzatish perspektivasi. Narsalarning o'ziga qarab rasm chizishda perspektiva qoidalaridan foydalanish. Kuzatish perspektivasi mazmun va mohiyati. Kuzatish perspektivasi qoidalari asosida geometrik jismlarning rasmini chizish. Kuzatish perspektivasi qoidalari asosida interyer rasmini chizish. Kuzatish perspektivasi qoidalari asosida zinaning rasmini chizish.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ikkilamchi proyeksiyalar yordamida shakllarning aksonometriyalarini yasash. Aksonometriya turlari.
2. Qirrali jismlarning izometriya, dimetriya va trimetriyasini yasash. Aylananing to'g'ri burchakli aksonometriyasi.
3. Qiyshiq burchakli frontal dimetriya va gorizontal izometriyada jismlarning yaqqol tasvirlarini yasash.
4. Aksonometriyada pozitsion masalalar yechish.

5. Yig'ma birlikning yaqqol tasvirlarini yasash prinsiplari.
 6. Geometrik jismlarning aksonometriyasida yorug'-soylar bajarish.
 7. Arxitektura-qurilish chizmalarida zinapoya soylarini yasash. Bir qavatli bino aksonometriyasini va uning elementlarining soylarini yasash.
 8. Geometrik jism va buyumlarning texnik rasmini bajarish va ularni pardoqlash.
 9. Perspektivada masshtablar, pozitsion va metrik masalalarning mohiyati hamda ularni tekis geometrik shakllar, geometrik sirtlarning perspektivalarini qurishga tatbiq qilish.
 10. Butun va kasr masshtablari. Geometrik shakllarning perspektivasini qurishda masshtab tanlash va ulardan amaliy foydalanish.
 11. Ko'p qavatli binoning og'ma tekislikdagi perspektivasini qurish.
 12. Relefl, panoramali va qubbaviy perspektivalarning amalda qo'llanilishi.
 13. Obektning ekstereri va interyerlarining perspektiva-larini qurishda perspektiv tasvirlar yasashning optimal usullari, yoritish manbalarining qulay holatlari, aks tasvirlar yasash uchun ko'zgu va suv havzalarini vaziyatlarini tanlash. Pozitsion masalalarni soya qurishga tatbiq qilish.
 14. Intererining perspektivasini sun'iy yorug'lik manbaidan tushgan soylari va og'ma ko'zgudagi aks tasvirlari bilan qurish.
 15. Klassik san'at asarlari va fotosuratlarini tahlil qilish. Rekonstruksiya qilishda fragmentni tanlash.
- Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur (bunda fanning xususiyatini hisobga olgan va yangi vaqt me'yorlari talabidan kelib chiqqan holda akademik guruh talabalari soni 25 nafar va undan ko'p bo'lganda guruh ikkita kichik guruhga bo'linishi kerak). Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va

boshqa janrlarda yozma bayon qilish;

- dokladlar tayyorlash;
- maqola tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va guruhli o'quv loyihasi;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbaalar bilan ishlash;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.)

yaratish;

- taqdimotlar yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;

ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Aksonometrik proyeksiyalarning amaliy mohiyati, san'at asarlarini yaratishda va o'quv jarayonida qo'llanishi.

2. Narsaning aksonometriyasini yasash uchun aksonometriya turini tanlay bilish.

3. To'g'ri burchakli aksonometriyada o'zgarish va keltirilgan koeffitsientlar bo'yicha yaqqol tasvirlar yasash va ularni tahlil qilish.

4. Aksonometriyada geometrik shakllarga tegishli pozitsion masalalar echish usullari va ularning tahlili.

5. Qiyshiq burchakli aksonometriyada shakllarning yaqqol tasvirlarini yasash.

6. To'g'ri burchakli aksonometriyada shakllar soyalarini yasashda uning qulay turini tanlay bilish.

7. Qurilish elementlarining soyalarini yasashda ularni geometrik shakllarga ajrata bilish.

8. Sodda yig'ma birliklarning to'g'ri burchakli aksonometriyasini

yasashda detallarining geometrik shakllarini o'rganish.

9. Murakkab yig'ma birliklarning to'g'ri burchakli aksonometriyasini yasashda detallarining geometrik shakllarini o'rganish.

10. Detallarning texnik rasmlarini chizishda aksonometrik proyeksiyalarning mohiyati.

11. Tekis shakllarning texnik rasmini bajarish.

12. Geometrik jismlarning texnikaviy rasmini bajarish.

13. Detallarning texnikaviy rasmini bajarish.

14. Yig'ma birliklarning texnikaviy rasmini bajarish.

15. Texnikaviy rasmda pardoqlash usullari.

16. Panoramali va dioramali perspektivalar.

17. Releflari va qubbalari (gumbaz) perspektivalar.

18. Obyektni perspektivasini qurishda pozitsion masalalardan foydalanish.

19. Metrik masalalardan foydalanib obyektning perspektivasini qurish.

20. Metrik masalalarni boshqa masala ko'rinishiga keltirib echishdagi qulayliklar.

21. Egri sirtlarning perspektivasini qurishning o'ziga xos xususiyatlari.

22. O'zaro kesishgan ko'pyoq va aylanma sirtlarning perspektivalarini qurishda pozitsion masalalarning roli.

23. Perspektiv tasvirlar qurishning yordamchi usullari va ularning amaliy ahamiyati.

24. Og'ma tekislikda perspektiv tasvirlar qurish va ularda soyalar yasashning nazariy asoslari.

25. Obyektning gorizontali hamda kartina tekisligidagi profil proyeksiyalari yordamida perspektivasini qurish.

26. Og'ma ko'zgularda aks tasvirlarda yasash qoidalari.

27. Berilgan kartinani kattalashtirish va kichiklashtirish.

28. San'at asari va foto sur'atni tahlil qilish.

29. Perspektivada fragmentlarni rekonstruksiya qilish. Perspektivasi noto'g'ri bajarilgan tasvirlarni to'g'rilash usullari.

30. Rasm chizishda perspektiva qoidalaridan foydalanishning imkoniyatlari.

V. Majburiy grafik ishlarning mazmuni.

CHizma geometriya fanining «Aksonometrik proeksiyalar», «Texnik

	<i>rasm</i>», va «<i>Perspektiv tasvirlar yasash</i>» modullari bo'yicha egallangan nazariy va amaliy bilimlarni yanada mustahkamlash, shuningdek, fanning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda talaba har bir yirik mavzular bo'yicha grafik vazifalar bajaradi. Quyida ushbu grafik vazifalarning taxminiy mazmuni keltirilgan. 1. Aksonometrik proyeksiya o'qlarini yasashga doir metrik masalalar yechish. 2. Qirrali detallaring to'g'ri burchakli aksonometriyalarini yasash. 3. Aylanma jismlardan tashkil topgan detallarning to'g'ri burchakli aksonometriyalarini yasash. 4. Sirtlarni tekislik bilan kesishishini aksonometriyada tasvirlash. 5. Sirtlarning o'zaro kesishish chizig'ini aksonometriyada yasash. 6. Yig'ma birlikning aksonometriyasini qurish. 7. Bino aksonometriyasini va uning soyalarini yasash. 8. Markaziy proyeksiyada pozitsion va metrik masalalar echish va ularning boshqa proyeksiyalash usullarida qiyosiy tahlilini tekshirish. 9. Obekt perspektivasini og'ma tekislikda qurish. 10. Aylanma sirtlarning perspektivasini qurish. 11. Obekt perspektivasini shaxsiy va tushuvchi soyalari bilan suvdagi aks tasvirini qurish. 12. Interer perspektivasini ko'zgudagi aks tasvirlari va soyalari bilan qurish. 13. Biror natyurmortni perspektiva qoidalari asosida bosqichma-bosqich chizish. 14. Klassik tasviriy san'at asarlaridan birini perspektiva qoidalari asosida tahlil qilish.
3.	VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari Talaba bilishi kerak: • aksonometrik proyeksiyaning mazmuni va rivojlanish tarixining ilmiy asosi, aksonometrik o'qlar va ular bo'yicha o'zgarish koeffitsientlari, yordamchi proyeksiyalash usuli bilan aksonometriya yasash, aksonometriyada pozitsion masalalar echish usullari, aksonometriyada soyalar yasash nazariyasi, perspektivada pozitsion va metrik masalalar echish, perspektiv tasvirlar qurishning yordamchi

	usullari, ogʻma tekislikda perspektiv tasvir qurish usullari, perspektivada soyalar nazariyasi, perspektivada tahlil va rekonstruktsiya ishlari toʻgʻrisida tasavvurga ega boʻlishi; (bilim) - magistrant aksonometrik masshtablar va izlar uchburchagining fazoviy holatini tasavvur qilish, aksonometriyaning asosiy teoremasini ilmiy asosda anglash va haqiqiy aksonometriyani keltirilgan aksonometriya bilan qiyoslash va tahlil qilish, ikkilamchi proyeksiyalar yordamida shakllarning aksonometriyalarini yasay olish, tekis shakllarning aksonometriyasini qura olish, markaziy proyeksiyalashda pozitsion va metrik masalalar yechish, perspektiv tasvir qurish usullarini bilish va tasvir qurishda tatbiq eta olish, perspektivasi berilgan obyektning plani va fasadini tiklay olishni bilishi va ulardan foydalana olishi; (koʻnikma) - buyumning aksonometriyasi, texnik rasmi va perspektiv tasviri oʻrtasidagi yutuq hamda kamchilik tomonlarni tahlil qila olish, buyum tuzilishidan kelib chiqib yaqqol tasvir qurishning eng qulay va maqsadga muvofiq usulini tanlay bilish va tatbiq etish, yaqqol tasvir qurish usullarida echilgan pozitsion va metrik masalalarni oʻxshash hamda farqli jihatlarini tahlil qilish, loyihalash ishlarida soyalar va perspektiv yasashlarning geometrik asoslarini amaliyotda qoʻllay olish, perspektiv tasvirlari asosida obyektlarning plani va fasadini tiklay olish, perspektiva qoidalari asosida rasm chiza olish
4.	VII. Taʼlim texnologiyalari va metodlari: - maʼruzalar; - interaktiv keys-stadilar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); - amaliy mashgʻulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamo boʻlib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni toʻla oʻzlashtirish, tahlil natijalarini toʻgʻri aks ettira olish, oʻrganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat boʻyicha yozma ishni topshirish.

IX. Asosiy adabiyotlar

Murodov SH.K., Hakimov L.Q., Xolmurzayev A. CHizma geometriya.

–T.: “Iqtisod-moliya”, 2006-2008 yy.

1. Qulnazarov B.B. CHizma geometriya. –T.: “O‘zbekiston”, 2006.

2. Valiyev A.N. Perspektiva. –T.: “Voriz nashriyot”, 2009..

3. Rahmonov I., Qirg‘izboyeva N., Ashirboyev A., Valiyev A., Nigmanov B. CHizmachilik. –T.: “Voriz nashriyot”, 2016.

4. CHEkmarev A.A. Nachertatelnaya geometriya i cherchenie. -Moskva: “Vysshее obrazovanie”, 2006-472 str.

X. Qo‘shimcha adabiyotlar

5. Mirziyoev SHavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /SH.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

6. Mirziyoev SHavkat Miromonovich. YAngi O‘zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. -458 b.

7. Valiyev A.N. Perspektiva. -T.: “Voriz-nashriyot”, 2012.

8. Murodov SH.K., Ashirbaev A.O. Russko-uzbekskiy slovar po nachertatelnoy geometrii i chercheniyu. -T.: “Fan”, 2008-192 b.

9. Valiyev A.N., va boshqalar. Perspektivadan joriy nazorat vazifalarining metodik ishlanmasi. -T.: “BROK CLASS SERVIS” MCHJ bosmoxonasi”, 2017.

10. Makarova M.N. Prakticheskaya perspektiva. -M.: OOO «Akademicheskii projekt», 2005.

11. Tarasova B.F., Dudkina L.A., Nemolotov S.O. Nachertatelnaya geometriya. -Sankt-Peterburg. “Lan”, 2005-256 str.

12. Kaygorodseva N.V., Oydupa T.V. Perspektiva: vidy i sposob postroeniya. Omsk, «Izdatelstvo OmGTU», 2011-70 str.

13. CHurbanov V.I., Lapshov A.YU., Sidorovskaya L.L. Perspektiva sxematizirovannogo zdaniya. -Ulyanovsk: «Izdatelstvo UGTU», 2007-24 str.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

	14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrda “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF - 6108 - son farmoni. Axborot manbaalari www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali. 15. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 16. www.ima.uz (O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi) 17. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi) 18. www.ziyonet.uz (jamoat axborot ta’lim tarmog‘i) 19. www.tdpu.uz 20. www.edu.uz
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma’sullar va dastur mualliflari: A.Turdaliev – QDU “– “San’atshunoslik ” kafedrasi” kafedrasi dotsenti, pfn. M. K. Ikromov – QDU “San’atshunoslik ” kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.d (PhD)
9.	Taqrizchilar: A.N.Valiev – Nizomiy nomidagi TDPU “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasi dotsenti. A.Hamraqulov - Namangan MQI “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasi dotsenti pfn (turdosh OTM);